


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 661,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,3 % ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **94,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 38,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 566,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 98,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **90,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 52,0 %) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mln. so'm



UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 661,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 100,3 % ni tashkil etdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 94,3 % va yirik korxonalar hissasiga 5,7 % to'g'ri keldi.


ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 28,2 % ulush bilan **468,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahar 1,5 % ulush bilan **25,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2019-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
2020-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **1 566,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 1,4 % ga pasaygan . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 94,3 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sardoba (99,7 %), Oqoltin (99,6 %), Guliston (99,5 %), Xovos (99,5 %) tumanlarida va Shirin sh. (99,3 %) yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Mirzaobod (108,1 %), Sirdaryo (106,7 %) Yangiyer (104,2 %) shahri va tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 661,3	100,3	94,8	138,6	1 566,4	98,6
Guliston sh.	468,5	103,1	34,2	110,6	434,3	102,5
Shirin sh.	25,4	104,1	0,2	87,7	25,2	104,3
Yangiyer sh.	142,7	104,2	9,5	95,0	133,2	105,0
Boyovut	79,1	99,8	1,0	67,5	78,1	100,4
Guliston	58,0	85,9	0,3	16,5	57,6	87,9
Mirzaobod	146,4	108,1	34,4	621,3	112,0	86,2
Oqoltin	119,8	103,5	0,4	21,3	119,4	104,9
Sardoba	92,7	76,7	0,3	17,0	92,4	77,6
Sayxunobod	70,9	81,1	0,9	34,5	70,0	82,5
Sirdaryo	403,3	106,7	13,4	113,5	389,9	106,5
Xovos	54,5	95,9	0,3	77,7	54,2	96,0

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 38,6 % ga o'sdi va 94,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,7 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 566,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 1,4 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sardoba (99,7 %), Oqoltin (99,6 %), Xovos (99,5 %), Guliston (99,5 %) tumanlari va Shirin shahri (99,3 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Mirzaobod (23,5 %) tumani va Guliston shahri (7,3 %), Yangiyer shahri (6,7 %) kuzatildi.



**SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 955,1** ming so'm (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 1,6 % ga kamaydi) va Sardoba tumani (75,4 %) hamda Sayxunobod tumani (79,8 %), Guliston (83,8 %), Boyovut (98,1 %), Xovos (94,2 %), Oqoltin (101,3 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (**5 148,1** ming so'm), Yangiyer shahri (**3 280,6** ming so'm) va Sirdaryo (**3 136,0** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




Hudud nomi	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	1 955,1	98,4
Guliston sh.	5 148,1	101,3
Shirin sh.	1 350,6	103,1
Yangiyer sh.	3 280,6	102,4
Boyovut	609,1	98,1
Guliston	796,0	83,8
Mirzaobod	1 986,7	105,1
Oqoltin	2 294,9	101,3
Sardoba	1 402,4	75,4
Sayxunobod	916,1	79,8
Sirdaryo	3 136,0	104,9
Xovos	569,4	94,3

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **90 763,8** mln. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 48,0 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **36 051,2** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 66,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **54 712,6** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 45,4 %) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **36 051,2** mln. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **54 712,6** mln. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Siirdaryo viloyati	90 763,8	52,0	36 051,2	66,9	54 712,6	45,4
Guliston sh.	19 671,8	90,6	19 654,0	110,5	17,8	0,5
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	2 626,7	42,8	2 626,7	42,8	0,0	0,0
Boyovut	9 098,9	57,5	2 764,5	44,6	6 334,3	65,8
Guliston	11 316,7	50,6	598,1	39,9	10 718,6	51,4
Mirzaobod	1 648,3	8,0	0,0	0,0	1 648,3	8,0
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	15 982,1	53,7	434,6	14,7	15 547,5	58,0
Sayxunobod	20 039,2	97,4	3 623,6	116,0	15 896,0	94,1
Sirdaryo	5 837,7	42,7	5 820,9	47,7	16,8	1,1
Xovos	4 542,3	19,6	528,7	16,4	4 013,5	20,1

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



692,0
mln. so'm

Tuzlamalar



9 983,8
mln. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



1 093,3
mln. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

7 808,3
mln. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



4 259,9
mln. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

406,6
mln. so'm



Tuxum

3 647,1
mln. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

787,5
mln. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

2 156,4
mln. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2020-yilning yanvar-iyun oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 36 051,2 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (9 983,8 mln. so'm) to'g'ri keldi.

520,9
mln. so'm



Ziravorlar


4 695,4
mln. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-iyun oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **54 712,6** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **43 888,9** mln. so'mni, qo'y va echkilar **8 657,9** mln. so'mni, otlar **2 086,7** mln. so'mni, parrandalar **79,1** mln. so'mni, tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik tadbirkorlik subyektlari

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **956,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 20,2 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **158,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 50,9 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi **798,5** mlrd. so'mni (10,1 % ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik tadbirkorlik subyektlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega hududlar, Oqoltin (130,8 %) Shirin shahri (123,8 %), Yangiyer shahri (116,2 %) tuman va shaxarlarda kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	956,5	79,8	158,0	50,9	798,5	89,9
Guliston sh.	259,2	77,5	9,9	49,9	249,3	79,3
Shirin sh.	195,8	123,8	0,0	61,4	195,8	123,8
Yangiyer sh.	38,1	116,2	0,0	0,0	38,1	116,2
Boyovut	32,6	44,2	24,3	36,3	8,3	124,5
Guliston	30,7	80,5	6,5	48,0	24,2	98,2
Mirzaobod	78,0	89,7	33,7	240,8	44,2	60,7
Oqoltin	30,3	130,8	18,3	132,5	12,0	128,2
Sardoba	25,7	42,2	23,8	40,1	1,9	120,5
Sayxunobod	51,1	51,3	26,6	33,3	24,5	125,1
Sirdaryo	181,0	72,2	7,8	31,6	173,3	76,6
Xovos	34,0	83,6	7,1	38,6	26,9	121,2

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, 798,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 10,1 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 83,5 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyer shahri (100,0 %), Shirin shahri (100,0 %), Guliston shahri (96,2 %), Sirdaryo (95,7 %), Guliston (79,0 %) tumanlarda yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Sardoba (7,5 %) tumaniga to'g'ri keldi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi**
Tel.: (67) 225-19-70